

CHET TILLARINI O'RGANISHNING QULAY VA SAMARALI
USULLARI

*SamDChTI xorijiy til va
adabiyoti ingliz tili yo'nalishi
talabasi **Raxmatullayeva Nozima***

Email: raxmatullayevanozima2005@gmail.com

Scientific supervisor

Shomurodova Naima Muxtorovna SamDCHTI

o'qituvchisi

Annotasiya: *Ushbu maqolada hozirda chet tillarini o'rganish muhimligi, qanday qilib chet tillarini yaxshi o'rganish mumkinligi, samarali usullari va texnologiyalardan foydalanish haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar: *Chet tillari, samarali usullar, lug'atlar, iboralar, sersifikat, dasturlar, "Pomidor" usuli*

Til o'rganish insonlarda uzoq sabr-matонат, kuch talab qiladigan jarayonlardan biri. Hozirgi globallashtirilgan hayotimizni chet tillarini o'rganishsiz tasavvur eta olmaymiz. Nafaqat butun dunyoda balki, O'zbekistonda ham chet tillarini o'rganishga, ularga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Xususan, O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi 312-sonli qaroriga asosan boshlang'ich sinflardan oq ingliz tilini o'rganish joriy etildi. Shu sababli va zamon talabi uchun ko'pchilik yoshlar o'z diqqat e'tiborini tilni, o'rganishga uni qanday tartibda o'rganish va qanday uslublarini qo'llash samarali bo'lishi haqida xabarlari yo'q, bilishmaydi. Xorijiy tillarni mukammal va qisqa muddat davomida o'rganish uchun quyidagi usullarni qo'llasak foydadan holi bo'lmaydi.

1.O‘ziga ishonchni oshirish.

Biror tilni maqsad qildingizmi, aslo qo‘rqmang,o‘z qobiliyatingizga va imkoniyatlaringizga qattiq ishonang.Murakkab grammatik qoidalar-u,lug‘atlarni yodlashdan qo‘rqmang.O‘zingizga bo‘lgan ishonchingizni oshiring.

2.Aniq maqsad sari intilish

Agar tilni nima maqsadda o‘rganayotganingizni aniqlab olsangiz uni o‘zlashtirish osonroq bo‘ladi ya’ni kimdir yaxshi o‘qib universitetga kirmoqchi, kimdir esa TOFEL, IELTS,CEFR sersifikatlarini olmoqchi,yana kimdir chet tilini o‘rganib chet elga ketmoqchi va yana o‘z karerasini rivojlantirmoqchidir. Shubhasiz,o‘z oldingizga maqsad qo‘ying va uni ortidan quving.

3.Grammatik qoidalar va lug‘atlar yod olish.

Hech qaysi tilni lug‘atlarini yod olmasdan o‘rganib bo‘lmaganidek, grammatik qoidalardir ham mukammal darajada o‘zlashtirib bo‘lmaydi.Bu juda ham zerikarli tuyulishi tabiiy, ammo ularni turli mashg‘ulotlar,o‘yinlar va activitiylar bilan bog‘lab o‘rganilsa o‘sha tilni o‘zlashtirish oson va qiziqarli bo‘ladi.

4.Turli xil til o‘rgatishga yordam beradigan dastur, programmalar va saytlardan foydalanish.Hozirda ijtimoiy tarmoqlarda turli xildagi til o‘rgatuvchi saytlar va dasturlar ommalashib bormoqda.Misol tariqasida,IELTS Speaking Assistant, Wisdom, Hello Talk, ilovalarini aytishimiz mumkin.Ulardan oqilona foydalanilsa albatta o‘z samarasini beradi.

5.Takrorlash.

Abu Rayhon Beruniy: "Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir" deb ta’kidlagan.Zero, o‘qib, yod olgan narsalarimizni takrorlamas ekanmiz,ular uzoq muddat xotiramizda saqlanib qolmaydi.Yangi so‘zlarni audio ko‘rinishda,uyali aloqa vositalari yordamida hamda zamonaviy gadjetlar yordamida doimiy, tinglash orqali lug‘at boyligini oshirib borishga samarali tarzda erishishimiz mumkin.

Bundan tashqari bugungi kunda mashhur ruhshunoslar xorijiy tillarni o‘rganish inson dunyoqarashini qisman bo‘lsada o‘zgartirish xususiyatiga ega

degan fikrni ilgari surmoqdalar. Xorijiy tillarni o'rganish mobaynida o'sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti dunyoqarashi bilan yaqindan tanishib borish imkoniyati paydo bo'ladi. Til o'rganuvchilarning asosiy qismini

17-35 oraliq'idagilar tashkil etadi. Chet tilini nafaqat o'qituvchi yordamida, balki mustaqil ravishda ham o'rganish mumkin. Buning uchun esa ozgina sabr va qunt, mustahkam iroda va qat'iy tartibga asoslangan kun rejaga amal qilish yetarlidir. Dunyodagi ilk sinxron tarjimonlardan biri bo'lmish Kato Lomb asl mutaxassisligi kimyo fani bo'lishiga qaramay, 8 ta tilda qiyinchiliksiz tarjima qilgan, 16 ta tilda erkin muloqot qilishni bilgan. Uning "Men tilni qanday o'rganaman?" nomli bestseller asarida xorijiy til o'rganishning oddiy va oson usullari haqida 10 ta qoida keltirib o'tiladi:

1. Til o'rganish bilan imkon qadar shug'ullanish. Bu xuddi sport mashg'ulotlaridek, ma'lum bir tizimga asoslangan mashq qilish muddatlaridan iborat bo'lishi lozim. Hech bo'lmaganda kun davomida 10-15 daqiqani yangi so'zlar o'rganish va qaytarish uchun sarflash kerak.

2. O'qishni rejalashtirib oling.

Agar til o'rganishga bo'lgan ishtiyoq vaqt o'tkani sari susayib borsa, shaxsiy o'quv rejangizni tuzib chiqing. Masalan, biroz dars qilib ko'chada sayr qiling yoki musiqa tinglang. Bu usul fanda "Pomidor" usuli deb ataladi, yani, 30 minut hech nimaga challimasdan dara qilish va 10 minut o'zimiz yoqtirgan mashg'ulotlarni bajarish, bu mashqni kuniga 7/8 marta bajarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. So'z birikmalaridan foydalaning.

Alohida so'zlarni emas, ularning bir-biriga qo'shilgan vaziyatini kontekst shaklida yodlashga harakat qiling.

4. Yon daftarcha tuting. Yon daftarga qo'shimcha so'zlar va tayyor gaplarni yozib boring.

5. Xotira bilan ishleng.

Hayolan barcha ko'ringan narsalar reklama, dialoglar, qo'shiq matni, gazetadagi maqolalarni tarjima qilishga harakat qiling.

6. Yangi lugʻatlarni yod oling.

7. Muomalada keng qoʻllaniladigan soʻzlar, idioma, ibora va soʻzlarni oʻrganib boring.

8. Nazariya bilan cheklanib qolmang.

Buning uchun kino tomosha qilishingiz mumkin turli adabiyot va gazetalar bilan qiziqing oʻrganayotgan tilingizda soʻzlashuvchi insonlar bilan muloqot qiling.

9. Xatolarni toʻgʻirlang. Xatolardan choʻchimang, hech qachon va hech nimani nazoratsiz qoldirmang.

10. Ishonch. Oʻzingizga qattiq ishonang. Hech nimaga qaramay davom eting.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlab oʻtish joizki, rivojlanayotgan mamlakatimizga biroz boʻlsa-da oʻz hissamizni qoʻshish, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalana olish maqsadida chet tillarini oʻrgansak biz ham kelajagi porloq yoshlarga aylanish uchun oʻz imkoniyatlarimizni kengaytirgan boʻlamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/474/262/741

2. <https://hp.jdpu.uz/index.php/journal/article/download/2146/1524/5680>

3. <https://cyberleninka.ru/article/n/independent-learning>

4. <https://hp.jdpu.uz/index.php/journal/article/download/2146/1524/5680>

5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sGLYHvoAAAAJ&citation_for_view=sGLYHvoAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

6. Oʻzbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi qarori.

7. Shamuradova Naima Muxtarovna. Historical Origin and Usage of Clause of Reason in English. "The peerian Journal", vol.5, APR.2022, pp.183-7, <https://peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/170>.